

## SHARQ XATTOTLIK SAN'ATI JOZIBASI TARIXI

**Abdukabirov Mirzoanvar Umidjon o‘g‘li**

Oreintat Universiteti talabasi

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Sharq xattotlik san'ati o'zining uzoq tarixida doimiy ravishda rivojlanib kelganligi xattotlik san'atining taraqqiyoti va Husnixat uslublari va xattotlik maktablari haqida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** *Sharq xattotligi, Husnixat san'atining uslublari, xattotlik maktablari.*

**Аннотация:** *В статье рассматривается непрерывное развитие искусства каллиграфии на Востоке на протяжении его долгой истории, развитие искусства каллиграфии, а также стили и школы каллиграфии Хуснихата.*

**Ключевые слова:** *восточная каллиграфия, стили каллиграфии, школы каллиграфии.*

**Abstract:** *This article discusses the fact that the art of Oriental calligraphy has been constantly developing throughout its long history, the development of the art of calligraphy, and the styles of calligraphy and schools of calligraphy.*

**Keywords:** *Oriental calligraphy, Styles of calligraphy, schools of calligraphy.*

Sharq xattotlik san'ati o'zining uzoq tarixiga ega bo'lib, asrlar davomida shakllangan va rivojlangan. Bu san'at turli xalqlarning madaniyati va san'ati bilan uyg'unlashib, turli maktab va uslublarni yaratgan. Sharq xattotligi ayniqsa, islom madaniyatida alohida o'rin tutadi, va boshqa diniy hamda ilmiy asarlarni bezash vositasi sifatida keng qo'llaniladi.

Mashhur xattotlar xatlarining chiroyli va jozibador bo'lishi uchun arab harflarining har biriga oro berishiga, husn kiritishga va ularni guzallashtirishga harakat qiladi.

Arab yozuvining 36 shakli(hati)dan har biriga alohida uslub va tab'iy yunalishi bilan bir-biridan farqlanadi. Bu esa unga betakrorlik va o'ziga hoslik bag'ishlaydi. Sharq xattotligi o'quvchini hayajonga soladi va unga guzal tug'ularni uyg'otadi.

Dunyodagi barcha muqaddas kitoblar, qomusiy, tarixiy, ilmiy, adabiy, ma'rifiy, asar va to'plamlar mana shu xattot(kalligraf)larning sermashaqqat menatlari evaziga bizgacha yeti kelgan, nodir merosimiz asrlar osha avloddan-avlodga o'tib kelmoqda.

Husnixat san'atining asosiy uslublari-28 harfdan iborat bo'lgan arab alifbosining dastlabki shakli ma'qaliy xatidir. Arab hatining "ma'qaliy" deyilishi, Ma'qaliy ibn Sinonga nisbat berilganini bildiradi. Ma'qaliy xati kufiy xatida oldingi qadimiy yozuvlardan bo'lib u harflarning to'g'ri chiziqligi bilan kufiy xatidan ajralib turadi. Ikki dunyo saodati bo'lmish Qur'oni karim ham mana shu xatda bitilgan. Xazrati Usmon raziyallohu anhu boshchiligidagi Qur'on kitobat qilindi va bir necha nusxada ko'chirtirildi. Shuningdek ummaviylar zamonida ya'ni VII asr oxirida tangalar kufiy xatida zarb qilina boshladi.

Islom olamida arab xatining kuyidagi 7 turi keng qo'llanadi.

1. Muhaqqaq. Bu xatning ko'proq qismi tekis tikka chiziqli harflar uzun yoziladi. O'ramlarning uchi ingichka bo'lib tugaydi, qolgan bo'laklari dumaloq shakldadir. Shuning

uchun bu xatning ma'qaliy va kufiy xatlarga o'xshashligi-boshqa xatlarga nisbatan ko'proq. Shu sababdan Ibn Muqla bu xatga muhaqqaq deb nom berdi boshqa turdagi xatlardan birinchi deb bildi.

2. Rayxoniy. Kufiydan kelib chiqqan bu xatning yozilishi shakl jihatidan rayxonga o'xshash bo'lib aylanma shaklli harflar sulus xatiga qaraganda yotiqroq va chuziqroq yoziladi. Rayxoniy xatining ixtirochisi Ibn Bavvob.

3. Sulus. Bir narsaning uchidan bir hissasi yoki uchinchi hissasi, demakdir. Sulus xati deyilishiga sabab shuki, dunda qalamning uchinchi hissasi ishlatiladi yoki suls xati ta'limda qalamning uchdan bir hissasi ko'proq ishlaga solinadi. Mazkur yozuv uslubida "alif", "dol", "lom" hariflariga gajakli bo'ladi. Boshlanishida tikka chiziqlarining uch qismi changaksimon boshlanib oxiri hafis burama bilan tugaydi. Ibn Bavvob birinchi bo'lib suls xati harflarining shaklini nuqta o'lchovlariga asoslangan va suls xatining grafik asoslarini ixtiro etgan.

4. Nasx. Bu xat xattotlar tomonidan keng qo'llanilgan. "Nasx" xatining lug'aviy ma'nosi - o'chirish, bekor qilish demakdir. Bu xat turi yuzaga chiqib shuhrat qozongandan so'ng boshqa xatlarning barchasi mansux qilingan ya'niy ishlatishdan qoldirilgan. Uning ixtirochisi mashhur san'atkor xattot Ibn Muqla hisoblanadi.

5. Tavqi. Xatning yarimi tekis yarimi yumaloq chiziqdan tashkil topgan bu yozuv turi ma'qaliy va kufiy xatlarga o'xshaydi. "Tavqi" deyilishiga sabab shuki ilgari qozilar qozixona hujjatlarining boshiga yoziladigan so'zlarni shu xatda yozishgan.

6. Riyo. Bu "ruq'a" so'zining ko'pligi bo'lib qog'oz parchalari maktublar demaktir. Riyo xatida xarflar bir-biriga qurama qilib yozilgan. Bu yozuv turi usmoniylar hukmronligi davrida katta shuhrat qozongan va keng tarqalgan. Ko'pincha kishilarga yuboriladigan nomalar shu xat bilan yozilgan. Tavqi va riyo xatlarining ixtirochisi ma'lum emas.

7. Ta'liq. Ta'liq osilib turuvchi ilingan degan ma'noni anglatadi. Abul Oliy ixtiro etgan ta'liq xatining grafik asoslari kufiy xatidan kelib chiqqan bo'lib bu xat forsiy matnlarni yozish uchun ixtiro qilingan.

Xatlarning har biri mahsus o'rinlarda qo'llanib kelingan: kufiy qasida va she'r yozishda, rayxoniy va nasx qissa va xabarlarda, suls ilmiy asarlar va yo'l-yuriqlarda, tavqi buyruq va farmonlarda, riyo maktublarda ishlatilgan.

O'rta Osiyo xattotlik maktabi.

Buxor xattotlik maktabi. Bu maktab XVI-XVII asrlarda taraqqiyotining yangi bosqichlariga ko'tariladi.

XVI-XVII asarlarida Mir Ubaydi Buxoriy tomonidan "Nasxi Buxoriy" xati ixtiro qilinadi.

Xorazm xattotlik maktabi. XVIII asrning boshlarida mustaqil maktab sifatida shakllanadi. XIX asrga kelganda Muhammad Rahim I va Muhammad Rahim II zamonasida Xorazm xattotlik maktabi taraqqiy etadi va Nasta'liq xati yetakchi o'ringa egaydi.

Farg'ona va Qo'qon xattotlik maktabi. XVII asrning ikkinchi yarimi va XIX asrda Qo'qon xonligida madaniy xayot san'ati va adabiyoti ravnaq topadi. Farg'ona shaharlarida qo'qonlik mashhur xattot Muhammad Sharif Dobir, Muhammad Aliyxon, Muhammada

Yodgor Xo‘qandiy, Abdullatif Hisoriylar mazkur maktabning taraqqiyotiga o‘zlarining munosib hissalarini qo‘shganlar. Qo‘qon xattotlik maktabida ham nasta‘liq xati yetakchi o‘rinni egallaydi.

Samarqand xattotlik maktabi. XVII asrlarda Muhammad Murod Samarqandiy, Mir Rajab Samarqandiy, Samarqand xattotlik maktabiga asos solishdi.

### **XULOSA**

Sharq xattotlik san'ati uzoq va boy tarixga ega. U o'zining rivojlanishida turli xil bosqichlarni bosib o'tgan bo'lib, har bir davrda o'ziga xos xususiyatlarni kasb etgan. Bugungi kunda xattotlik san'ati qayta tiklanish davrini boshidan kechirmoqda va zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashgan holda yangi shakllar va ifoda usullarini topmoqda. Sharq xattotlik san'ati – bu go'zallik, ma'naviylik, madaniyat va individual ifodani o'zida mujassam etgan noyob san'at turi. Uning jozibasi asrlar osha millionlab insonlarni o'ziga maftun etib kelmoqda va kelajakda ham bu san'at o'z ahamiyatini yo'qotmaydi.